Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 539-sahifa.
2026-yil, oktabr.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119

TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148
RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247

MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar).....322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики.....338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish.....347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari.....358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida).....365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.....373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards.....381

SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar.....389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari.....395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash yo'llari.....401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo'yicha statistik tahlili.....407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari (Xorazm viloyati misolida).....413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....430
SA'DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili.....439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari.....447
SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari.....458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o'zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан)....475
TURDIYEV ULUG'BEK QAYUMOVICH
Sanoat o'sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.....484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O'G'LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o'sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli.....493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari.....501

NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari……512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish……518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi……528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili……539

UO‘K: 528.575.1.095

SUV XO‘JALIGI INFRATUZILMASIDAN SAMARALI FOYDALANISH — IQTISODIY BARQARORLIKNING MUHIM OMILI

YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH
i.f.d. (DSc), Suv xo‘jaligi vazirligi
MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanishning iqtisodiy ahamiyati hamda suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish masalalari yoritilgan. Suv xo‘jaligi ob’ektlarining texnik holati, ekspluatatsiya xarajatlari va suv yo‘qotishlarining iqtisodiy natijalarga ta’siri tahlil qilingan. Suv fondi yerlarini differensial iqtisodiy baholash, ularning boshlang‘ich ijara qiymatini belgilash va iqtisodiy pasportlarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: suv xo‘jaligi infratuzilmasi, suv fondi yerlari, irrigatsiya, suv resurslari, iqtisodiy samaradorlik, ekspluatatsiya xarajatlari, elektron auksion, ijara qiymati, geoaxborot tizimi, iqtisodiy baholash.

Аннотация. В статье рассматривается экономическое значение эффективного использования водохозяйственной инфраструктуры и повышения экономического потенциала земель водного фонда. Анализируется влияние технического состояния водохозяйственных объектов, эксплуатационных затрат и потерь воды на экономические результаты. Разработаны научно-практические предложения по дифференцированной экономической оценке земель водного фонда, определению начальной арендной стоимости и формированию экономических паспортов земельных участков с учётом их местоположения, инфраструктурной обеспеченности, разрешённого использования и экологических ограничений.
Ключевые слова: водохозяйственная инфраструктура, земли водного фонда, ирригация, водные ресурсы, экономическая эффективность, эксплуатационные затраты, электронный аукцион, арендная стоимость, геоинформационная система, экономическая оценка.

Abstract.. This article examines the economic importance of efficient water infrastructure management and the development of the economic potential of water fund lands. It analyzes how the technical condition of water infrastructure, operating costs, and water losses affect economic performance. The study proposes a differentiated approach to the economic valuation of water fund lands, the determination of initial lease prices, and the preparation of economic profiles for individual land plots, taking into account location, infrastructure availability, permitted uses, and environmental restrictions.
Keywords: water infrastructure, water fund lands, irrigation, water resources, economic efficiency, operating costs, electronic auction, lease value, geographic information system, economic valuation.

KIRISH

Iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining cheklanganligi, aholi soni va iqtisodiy faollikning ortishi sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish nafaqat ekologik, balki muhim iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi sug‘orishga bevosita bog‘liq bo‘lgan mamlakatlarda suv xo‘jaligi infratuzilmasining texnik holati, uni saqlash xarajatlari va mavjud ob’ektlardan foydalanish samaradorligi hududlarning iqtisodiy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlardan unumli foydalanish, irrigatsiya va melioratsiya ob’ektlarining ishonchli faoliyatini ta’minlash hamda suv

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

resurslarini tejash qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi, yerlar unumdorligi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq. Shu bois suv xo‘jaligi infratuzilmasini saqlash va modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, suv fondi yerlarining huquqiy holatini tartibga solish va ularning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Suv xo‘jaligi sohasidagi islohotlar doirasida raqamli boshqaruvni rivojlantirish, kadastr ma’lumotlarini takomillashtirish, suv xo‘jaligi ob’ektlaridan foydalanishda iqtisodiy mexanizmlarni kengaytirish va davlat mulkidan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 26 maydagi PF–99-son Farmonida suv fondi yerlarini xatlovdan o‘tkazish, ularning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish va qonunchilikda belgilangan talablar asosida bo‘sh yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish bilan bog‘liq vazifalar nazarda tutilgan [3].

Mazkur yondashuv suv fondi yerlarini faqat ma’muriy boshqaruv ob’ekti sifatida emas, balki iqtisodiy salohiyatga ega resurs sifatida ham baholash imkonini beradi. Biroq ulardan iqtisodiy maqsadlarda foydalanishda suv xo‘jaligi ob’ektlarining funksional ahamiyati, suv resurslarini muhofaza qilish talablari va ekologik cheklovlarga qat’iy rioya etilishi lozim.

Shundan kelib chiqib, suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanishning iqtisodiy asoslarini yoritish, suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyatini baholash va ularni iqtisodiy muomalaga jalb etishda aloxida xuquqiy texnikaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon amaliyotida suv ob’ektlariga tutash hududlarni boshqarishda geoaxborot tizimlari va masofadan zondlash texnologiyalaridan foydalanish keng tadqiq etilgan. Jumladan, Skott Gyots tadqiqotlarida masofadan zondlash texnologiyalari sohil bo‘yi himoya zonalarini xaritalash, ulardagi o‘zgarishlarni monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini berishi ko‘rsatilgan[5]. Shuningdek, Gordon D. Rassel., Charlz P. Xokins va Maykl P.O‘Nil. ishlarida esa GIS texnologiyalaridan gidrologiya va yerdan foydalanish ma’lumotlarini birlashtirgan holda sohil bo‘yi hududlarida tiklash ishlari uchun ustuvor maydonlarni tanlashda foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan [6].

Shuniga aloxida e’tibor qaratish kerakki chet el oliblaridan Sunil Narumalani asosiy e’tiborni masofadan zondlash va GIS texnologiyalari yordamida suv obyektlari atrofidagi himoya zonalarining fazoviy chegaralarini aniqlash, shuningdek, suv obyektlari va ularga tutash yer qoplamlarini xaritalashga qaratgan bo‘lsalar [7], Mark I. Statter tomonidan sohil bo‘yi zonalarini belgilashda faqat fazoviy tasvirlarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, gidrologik, tuproq, relef va o‘simlik qoplamiga oid ko‘p manbali ma’lumotlarni integratsiyalash asosida hududlarni kompleks baholash yondashuvi taklif etilgan [8].

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amalga oshirladigan ishlarning normativ-huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, Suv kodeksi hamda suv xo‘jaligi sohasida davlat mulkidan foydalanish va bozor mexanizmlarini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi [1–4].

Shuningdek, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, iqtisodiy baholash va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanish zarur. Ushbu yondashuvlar suv xo‘jaligi infratuzilmasining iqtisodiy ahamiyatini, suv fondi yerlaridan foydalanishning huquqiy shartlarini hamda ularning iqtisodiy salohiyatini baholash imkonini beradi.

Suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyatini baholashda quyidagi omillar asosiy mezonlar sifatida qabul qilinadi:

- yer uchastkasining maydoni va joylashuvi;
- hududning soliq bazasi;
- transport va muhandislik infratuzilmasi bilan ta’minlanganligi;
- suv ob’ektining xususiyatlari va iqtisodiy salohiyati;
- qonunchilikda belgilangan ruxsat etilgan foydalanish maqsadi;
- suv xo‘jaligi ob’ektlarining xavfsizligi va ekspluatatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar;
- ekologik va sanitariya muhofazasi bilan bog‘liq cheklovlar.

Infratuzilmadan foydalanish samaradorligini baholashda esa suv yo‘qotishlari, energiya sarfi, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xarajatlari, shuningdek, suv bilan ta’minlanadigan yer maydonlarining ishlab chiqarish salohiyatini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Ushbu metodologik yondashuvlar suv xo‘jaligi ob’ektlarining ekspluatatsiya samaradorligi bilan suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Suv fondi yerlarini ijara huquqi asosida elektron auksionga chiqarishda boshlang‘ich ijara narxini belgilash amaliyotini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki yer uchastkalarining maydoni, joylashuvi, infratuzilma bilan ta’minlanganligi, suv ob’ektining xususiyatlari va foydalanish imkoniyatlari turlicha bo‘lib, ularning iqtisodiy salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli barcha yer uchastkalariga bir xil yondashuv asosida narx belgilash ularning haqiqiy iqtisodiy xususiyatlarini to‘liq aks ettirmasligi mumkin.

Mazkur muammoni hal etish uchun suv fondi yerlarining normativ va iqtisodiy qiymatini aniqlash, shuningdek, boshlang‘ich ijara qiymatini hisoblashning ilmiy asoslangan uslubiyotini ishlab chiqish zarur. Bunda yer uchastkasining joylashuvi, transport va muhandislik infratuzilmasi, suv ob’ektining iqtisodiy salohiyati, ruxsat etilgan foydalanish maqsadi, ekologik cheklovlar hamda sug‘oriladigan ekin yerlari uchun tuproq unumdorligi va bonitet balli kabi mezonlarni hisobga oluvchi baholash koeffitsientlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Ushbu koeffitsientlarning aniq qiymatlarini belgilashda sub'ektiv yondashuvga yo'l qo'ymaslik uchun ularni kadastr ma'lumotlari, tuproq tadqiqotlari, mavjud ijara shartnomalari, elektron auksion natijalari va iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida hisoblash hamda sinovdan o'tkazish lozim. Shuningdek, yerning normativ qiymati, iqtisodiy baholash natijasi, boshlang'ich ijara qiymati va auksionda shakllangan yakuniy narx o'rtasidagi farqni aniq belgilash zarur, chunki ular turli iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, bir-birini avtomatik ravishda almashtirmaydi.

Mazkur uslubiyotni ishlab chiqish maqsadida Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti, «TIQXMMI» Milliy tadqiqot universiteti, Kadastr agentligining Ko'chmas mulklarni ommaviy baholash markazi, «O'zdaverloyiha» davlat ilmiy-loyiha instituti hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi mutaxassislari ishtirokida idoralararo hamkorlikni yo'lga qo'yish taklif etiladi. Bunda ilmiy tashkilotlar tomonidan suv xo'jaligi ob'ektlarining texnik-iqtisodiy xususiyatlari va baholash mezonlari o'rganilishi, kadastr va yer tuzish tashkilotlari tomonidan yer uchastkalarining maydoni, chegaralari, tuproq xususiyatlari va huquqiy holati tahlil qilinishi, tegishli vakolatli organlar tomonidan esa baholash hamda auksionga chiqarish tartiblarining amaldagi qonunchilikka muvofiqligi ta'minlanishi lozim.

Alohida e'tibor suv fondi yerlari tarkibidagi 2,4 ming gektar sug'oriladigan ekin yerlarining normativ qiymatini baholash va tuproq bonitet ballini hisoblashga qaratilishi zarur. Buning uchun mazkur yerlarni xatlovdan o'tkazish, tuproq va meliorativ holatini o'rganish, iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash hamda natijalarni yagona ma'lumotlar bazasida jamlash maqsadga muvofiq. Yakunda baholash uslubiyoti va koeffitsientlar tizimi bo'yicha ilmiy-uslubiy takliflar ishlab chiqilib, sinov natijalari asosida takomillashtirilishi suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyatini aniqlash, boshlang'ich ijara narxini asoslash va davlat mulkidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyatini baholash. Suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyati ularning maydoni bilan cheklanmaydi. Yer uchastkasining joylashuvi, transport imkoniyatlari, muhandislik infratuzilmasi, suv ob'ektiga nisbatan o'rni, ruxsat etilgan foydalanish maqsadi va ekologik cheklovlardan kelib chiqib, ularning iqtisodiy jozibadorligi farq qilishi mumkin.

Shu sababli suv fondi yerlarini iqtisodiy baholashda barcha uchastkalarga bir xil yondashuvni qo'llash o'rniga, ularning xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial baholash mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Mazkur mexanizm doirasida boshlang'ich ijara qiymatini aniqlash uchun quyidagi shartli modelni qo'llash taklif etiladi:

$$BIQ = S \times BS \times Kj \times Ki \times Ks \times Kf \times Ke$$

Bunda:

- **BIQ** — yer uchastkasining boshlang'ich ijara qiymati;
- **S** — yer uchastkasining maydoni;
- **BS** — qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadigan bazaviy stavka;
- **Kj** — joylashuv koeffitsienti;

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

- **Ki** — infratuzilma bilan ta’minlanganlik koeffitsienti;
- **Ks** — suv ob’ektining iqtisodiy salohiyati koeffitsienti;
- **Kf** — ruxsat etilgan foydalanish maqsadi koeffitsienti;
- **Ke** — ekologik va boshqa huquqiy cheklovlarni hisobga oluvchi koeffitsient.

Taklif etilayotgan model yer uchastkalarining o‘ziga xos xususiyatlarini baholashga xizmat qiladi. Biroq koeffitsientlarning aniq qiymatlari statistik ma’lumotlar, amaldagi ijara shartlari, auksion natijalari va normativ talablar asosida hisoblab chiqilishi lozim. Ularning qo‘llanilishi amaldagi qonunchilikda belgilangan baholash va auksion tartiblariga muvofiq bo‘lishi shart.

Bunda iqtisodiy jozibadorlikni oshiruvchi omillar bilan bir qatorda, suv xo‘jaligi ob’ektlarining xavfsizligi, muhofaza zonalari va yer uchastkasidan foydalanishga doir cheklovlar ham hisobga olinishi kerak.

Ekologik yoki huquqiy talablar iqtisodiy koeffitsientlar orqali bekor qilinishi yoki chetlab o‘tilishi mumkin emas.

Suv fondi yerlarining iqtisodiy pasportlarini shakllantirish. Suv fondi yerlaridan samarali foydalanishda kadastr ma’lumotlari, huquqiy hujjatlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yagona axborot muhitida jamlash muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan elektron auksionga chiqarilishi mumkin bo‘lgan har bir yer uchastkasi uchun iqtisodiy pasport shakllantirish taklif etiladi. Unda quyidagi ma’lumotlarni aks ettirish maqsadga muvofiq:

1. Yer uchastkasining kadastr raqami, maydoni va chegaralari.
2. Yerga bo‘lgan huquqning holati va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi.
3. Suv obyektining turi, xususiyatlari va funksional ahamiyati.
4. Transport va muhandislik infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik darajasi.
5. Qonunchilikka muvofiq ruxsat etilgan foydalanish turlari.
6. Ekologik, sanitariya va muhofaza talablari bilan bog‘liq cheklovlar.
7. Boshlang‘ich ijara qiymatini hisoblash uchun zarur iqtisodiy ko‘rsatkichlar.
8. Auksion natijalari va tuzilgan ijara shartnomalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Auksionga chiqariladigan yer uchastkasining topografik-geodezik o‘lchov materiallari ilova qilinishi shart.

Iqtisodiy pasportlarni geoaxborot tizimlari bilan integratsiyalash orqali yer uchastkalarining fazoviy joylashuvi, chegaralari va infratuzilma ob’ektlariga nisbatan o‘rnini vizual baholash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ma’lumotlarning yangilanib borishi ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish samaradorligini oshiradi.

Ushbu mexanizm yer uchastkalari haqidagi ma’lumotlarning ochiqligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlash, auksion ishtirokchilarining asoslangan qaror qabul qilishiga ko‘maklashish hamda davlat mulkidan foydalanish jarayonida shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Elektron auksionlar natijalarini iqtisodiy tahlil qilish. Suv fondi yerlarini qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq elektron auksion orqali ijaraga

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

berish ularning iqtisodiy salohiyatidan foydalanishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Biroq auksionni o‘tkazishning o‘zi iqtisodiy samaradorlikni to‘liq ta’minlamaydi. Buning uchun boshlang‘ich ijara qiymatining asoslanganligi, talabgorlar o‘rtasidagi raqobat va shartnoma shartlarining bajarilishi ham tahlil qilinishi lozim.

Auksion natijalarini yagona ma’lumotlar bazasida jamlash orqali yer uchastkalarining maydoni, joylashuvi, infratuzilmasi, boshlang‘ich va yakuniy ijara qiymati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish mumkin. Bu esa keyingi baholash jarayonlarida qiyosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish imkonini beradi.

Bunda, auksionda shakllangan yakuniy narxni yer uchastkasining mutlaq iqtisodiy qiymati sifatida qabul qilmaslik kerak. Chunki yakuniy narxga talabgorlar soni, raqobat darajasi, ijara muddati, ruxsat etilgan faoliyat turlari va boshqa shartlar ham ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, yer uchastkasidan foydalanish natijasida olingan iqtisodiy samara suv xo‘jaligi ob’ektlarining asosiy vazifalariga, suv resurslarini muhofaza qilish talablariga va qonunchilikda belgilangan cheklovlarga zid bo‘lmasligi lozim.

Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish va suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish bo‘yicha quyidagi inobatga olish zarur.

Birinchidan, suv xo‘jaligi infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini baholashda suv yetkazib berish hajmi bilan bir qatorda suv yo‘qotishlari, energiya sarfi, ekspluatatsiya va ta’mirlash xarajatlari hamda xizmat ko‘rsatiladigan yer maydonlarining iqtisodiy natijalarini hisobga olish zarur.

Ikkinchidan, suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyatini aniqlashda ularning maydoni, joylashuvi, infratuzilma bilan ta’minlanganligi, ruxsat etilgan foydalanish maqsadi va ekologik cheklovlarini hisobga oluvchi differensial baholash yondashuvini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, suv fondi yerlarini elektron auksionga chiqarishda har bir yer uchastkasi uchun iqtisodiy pasport shakllantirish, kadastr va huquqiy ma’lumotlarni geoaxborot tizimlari bilan integratsiyalash hamda auksion natijalarini yagona ma’lumotlar bazasida jamlash taklif etiladi.

To‘rtinchidan, taklif etilayotgan iqtisodiy baholash modelini amaliyotga joriy etishdan oldin koeffitsientlarning aniq qiymatlarini statistik ma’lumotlar va amaldagi auksion natijalari asosida hisoblash, modelning ishonchliligini tekshirish hamda uning amaldagi normativ-huquqiy talablarga muvofiqligini ta’minlash lozim.

XULOSA

Suv fondi yerlarini ijara huquqi asosida elektron auksion orqali realizatsiya qilish ularning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va davlat mulkini iqtisodiy muomalaga jalb etishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Biroq mazkur mexanizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun yer uchastkalarining boshlang‘ich ijara qiymatini ularning haqiqiy xususiyatlari, unumdorlik darajasi, infratuzilma bilan ta’minlanganligi va ruxsat etilgan foydalanish maqsadidan kelib chiqib asoslash zarur.

Tadqiqot natijalari asosida suv fondi yerlarining iqtisodiy salohiyatini baholashda yer uchastkasining joylashuvi, muhandislik va transport infratuzilmasi, suv ob'ektining xususiyatlari, ruxsat etilgan foydalanish yo'nalishi hamda ekologik va huquqiy cheklovlarni hisobga oluvchi differensial baholash mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Shuningdek, har bir yer uchastkasi bo'yicha kadastr, huquqiy, tuproq-unumdorlik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni qamrab olgan elektron pasport shakllantirish, ma'lumotlarni geoaxborot tizimlari bilan integratsiyalash hamda elektron auksion natijalarini yagona ma'lumotlar bazasida jamlash maqsadga muvofiq.

Alohida e'tibor suv fondi yerlari tarkibidagi 2,4 ming gektar sug'oriladigan ekin yerlarining normativ qiymatini baholash va tuproq bonitet ballini hisoblashga qaratilishi lozim. Bu mazkur yerlarning unumdorlik darajasi va iqtisodiy salohiyatini aniqlash, ulardan oqilona foydalanish bo'yicha boshqaruv qarorlarini asoslash hamda qonunchilikda belgilangan tartibda elektron auksionga chiqarilishi mumkin bo'lgan yer uchastkalari uchun boshlang'ich ijara qiymatini iqtisodiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan yondashuvlarni amaliyotga joriy etish baholash jarayonining shaffofligi va xolisligini oshirish, auksion ishtirokchilari uchun axborot ochiqligini ta'minlash, davlat daromadlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda suv xo'jaligi infratuzilmasining xavfsizligi va asosiy funksional vazifalarini saqlagan holda suv fondi yerlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Bunda baholash natijalari va auksion shartlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 26 maydagi PF–99-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 2 iyuldagi 362-son qarori.
5. Goetz S.J. Remote sensing of riparian buffers: Past progress and future prospects // Journal of the American Water Resources Association. – 2006. – Vol. 42. – P. 133–143.
6. Stutter M.I., et al. The utility of spatial data to delineate river riparian functions and management zones: A review // Science of the Total Environment. – 2021. – Vol. 757. – 143982.
7. Russell G.D., Hawkins C.P., O'Neill M.P. The Role of GIS in Selecting Sites for Riparian Restoration Based on Hydrology and Land Use // Restoration Ecology. – 1997. – Vol. 5. – P. 56–68.
8. Gu F., Liu W. Applications of remote sensing and GIS to the assessment of riparian zones for environmental restoration in agricultural watersheds // Geo-spatial Information Science. – 2010. – Vol. 13. – P. 263–268.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy